

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TO‘XTASHEV HIKMATILLA ISMATILLAYEVICH

**FERMER XO‘JALIKLARINING YERDAN FOYDALANISH VA
MUHOFAZA QILISH SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHNING
HUQUQIY MASALALARI**

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

ТО‘ХТАШЕВ НИКМАТИЛЛА ИСМАТИЛЛАЕВИЧ

Fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini ta’minlashning huquqiy masalalari..... 3

ТОКНТАШЕВ КНИКМАТИЛЛА ИСМАТИЛЛАЕВИЧ

Legal issues of ensuring the efficiency of land use and protection of farming enterprises.....22

ТУХТАШЕВ ХИКМАТИЛЛА ИСМАТИЛЛАЕВИЧ

Правовые вопросы обеспечения эффективности использования и защиты земель фермерских хозяйств.....40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....44

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TO‘XTASHEV HIKMATILLA ISMATILLAYEVICH

**FERMER XO‘JALIKLARINING YERDAN FOYDALANISH VA
MUHOFAZA QILISH SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHNING
HUQUQIY MASALALARI**

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Yu692 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uzakova Go‘zal Sharipovna

Yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Utegenov Ongarboy Dariyabaevich

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi 07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 29-mart kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1365-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 14-martdagi 01-son reestr bayonnomasi).

S.S. Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Sh.N. Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar nomzodi (PhD), dotsent.

D.N. Mahkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global iqlim o'zgarishi va suv resurslarining tanqisligi, aholi sonining ortib borishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir talablarning yuqoriligi bevosita qishloq xo'jaligi tizimida fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirish masalasini qo'yadi. Bugungi kunda "dunyoda kichik va oilaviy fermer xo'jaliklari 570 milliondan ortiqni tashkil qilib, shulardan, kichik fermer xo'jaliklari (2 ga dan kam) dunyodagi qishloq xo'jaligi yerlarining taxminan 12 foizini, oilaviy fermer xo'jaliklari esa dunyodagi qishloq xo'jaligi yerlarining qariyb 75 foizini boshqaradi"¹. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish ko'lami va sifatini oshirish borasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030 yillarga mo'ljallangan Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida belgilangan 17 ta global maqsaddan "Ochlikni tugatish"ga erishishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va "Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash"²da tuproq unumdorligini saqlash masalasi mazkur yo'nalishda fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, yer boshqaruvini to'g'ri tashkil etish, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda fermer xo'jaliklarining yer resurslaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini saqlash bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot faoliyati dolzarb hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 20-dekabrda 72-sessiyasida qabul qilingan "2019-2028 yillarni BMTning Oilaviy fermerlik o'n yilligi deb e'lon qilish to'g'risida"gi 72/239-son rezolyutsiyasi³ barcha davlatlar uchun oilaviy fermerlik yuzasidan davlat siyosatini ishlab chiqish, takomillashtirish va o'z ilg'or tajribalarini boshqa davlatlar bilan baham ko'rish vazifasini belgilaydi. Shu bois fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha asosiy huquqiy yechim – bu BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Jahon banki, Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi (IFAD), Xalqaro oziq-ovqat siyosati tadqiqot instituti (IFPRI), Qurg'oqchil mintaqalarda qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA) va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tadqiqot natijalari asosida xalqaro standartlarga va milliy xususiyatlarga mos keladigan kompleks huquqiy bazani yaratish va tatbiq etish, yer va suv resurslaridan adolatli foydalanish huquqlarini kafolatlash, qishloq xo'jaligi faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, barqaror rivojlanishni rag'batlantirish, oilaviy fermerlarning huquqiy himoyasini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishdir.

O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklariga boshqa qishloq xo'jalik

¹ Lowder, S. K., Skoet, J., & Raney, T. (2016). [The number, size, and distribution of farms, smallholder farms, and family farms worldwide](#). World Development, 87, 16-29.

² Цели устойчивого развития // Официальный сайт ООН. — <https://sdgs.un.org/>

³ United Nations Decade of Family Farming (2019-2028) resolution / adopted by the General Assembly. – <https://digitallibrary.un.org/record/1479766?ln=ru>

korxonalari bilan birga biriktirilgan yerlar “umumiy qishloq xo‘jalik yerlarining 21 206,5 ming gektarini, shundan 3 701,0 ming gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi”⁴. “Sug‘oriladigan yerlar 50-yillarda aholi jon boshiga 0,5 gektar, 70-yillarda 0,4 gektar, 80-yillarda 0,2 gektardan to‘g‘ri kelgan”⁵ bo‘lsa, hozirgi vaqtda 0,12 gektarni tashkil qiladi. “1995 – 2020 yillar davomida ekin yerlarining o‘zgarishi tahlil qilinganda, har 5 yilda ekin yerlar maydoni 19,3 ming gektarga kamayishi kuzatilgan”⁶. Shu munosabat bilan, Prezidentimiz fermer xo‘jaliklarining yerdan samarali foydalanilishini rag‘batlantirish maqsadida “dala chetini samarali ishlatgan fermer xo‘jaliklariga tadbirkorlar reytingida qo‘shimcha ball hisoblanadi, ichki fitosanitar sertifikatini bir yil davomida bepul beriladi. Fermerning barcha yerlari uchun yer solig‘ini ikki yilga bo‘lib to‘lashga ruxsat etiladi”⁷, deb ta‘kidlaganligi qishloq xo‘jalik yerlari unumdorligini saqlash va muhofaza qilishning davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. Shu bois fermer xo‘jaliklarining yerdan oqilona va samarali foydalanishi uchun shaxsiy manfaatdorligini oshirish, imtiyozlar joriy etish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish, davlat boshqaruvini ixchamlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shuningdek iqlim o‘zgarishi, suv taqchilligi va qishloq xo‘jalik yerlaridan samarasiz foydalanilishi kabi muammolar ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borishning dolzarbligi va milliy qonunchilikni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF – 5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF – 5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF – 6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 29-yanvardagi PF – 60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, shuningdek 2023-yil 11-sentabrdagi PF – 158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini muayyan darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi. O‘zbekiston Respublikasining Milliy hisoboti. 2024 yil 1-yanvar holatiga. — <https://kadastr.uz/uz/yer-hisobi-yo'nalishi>.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. — Rasmiy sayt: <https://stat.uz>.

⁶ “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish va sohada qonuniylikni mustahkamlash – dolzarb vazifa” mavzusidagi Ochiq muloqot // Teznews.uz. — 2021 yil 11 iyun. <https://teznews.uz/11-06-2021/ochiq-muloqot>.

⁷ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma‘ruzasi. 2024-yil 28-noyabr. // <https://president.uz/oz/lists/view/7736>

innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy qonunchiligimizda yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirish bo'yicha huquqshunos olimlar tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, fermer xo'jaliklarining yerga oid faoliyatini samarali tartibga solishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ishlar asosan yer huquqi, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, agrar va tadbirkorlik huquqining umumiy jihatlarini qamrab olgan bo'lib, bu borada maqolalar, risolalar, monografiyalar hamda dissertatsiyalar yaratilgan. Jumladan, huquqshunos olimlardan I.Jalilov, Y.Jo'rayev, U.Bozorov, J.Xolmo'minov, M.Usmonov, X.Raxmonqulov, Sh.Fayziyev, N.Skripnikov, R.Kenjaye, M.Mirzaabdullayeva, B.Kalonovlar⁸ning ilmiy asarlari yer resurslarining huquqiy holati, shuningdek qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan bo'lsa, Q.Abdulhasanova, A.Shukurullayev, A.Gulmonov, Sh.Ro'zinazarov, K. Sindorov, U.Ayubov, N.Axmanov, Dj.Safarov, O.Narzullayev, G.Uzakova, D.Maxkamov, N.Rajabov, R.Toshboyeva, O.Utegenov, Sh.Boboqulov, E.Qurbonov, A.Xodjaye va J.Suvonqulovlar⁹ o'z ilmiy faoliyatlarida fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish, qishloq xo'jalik yerlari melioratsiyasi, qishloq xo'jaligida mehnat va shartnoma munosabatlari, tabiiy resurslardan foydalanishda jamoatchilik nazoratini tashkil etish bilan bog'liq yer qonunchiligini takomillashtirishga oid izlanishlar olib borgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari – S.A.Bogolyubov, O.A.Frolova, A.Yu.Suyundukova, M.Brinchuk, V.F.Bashmachnikov, I.N.Bobisheva, O.A.Orlova, V.V.Buzmakov, A.B.Medvedev, A.P.Anisimov, Y.S.Boltanova, L.G.Trushnikov, S.N.Volkov, F.P.Rumyansev, T.D.Konopleva, A.A.Sokolova, A.A.Artemev, I.A.Lepexin, V.A.Kundius, Yu.N.Ivanova, M.V.Logunova, hamda D.S.Murtazakulovlar¹⁰ tomonidan aynan agrar sohada fermerlik faoliyati bilan bog'liq xorijiy mamlakatlar tajribalari, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy holati, tamoyillari va yerdan foydalanishda samaradorlik va yer fondini toifalarga ajratish bilan bog'liq huquqiy masalalar yoritib berilgan.

Xorijda T.L.Daniels, J.C.Keene, H.Ritchie, M.Roser, H.R.Johnson, C.Rodgers, A.Bulman, K.Y.Cordes, L.Mehranvar, E.Merrill, Y.Fiedlerva J.D.Baerdemaekerlar¹¹ oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning huquqiy masalalarini o'rgangan. Biroq, ularning ilmiy ishlarida fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirish, fermerlik boshqaruvini takomillashtirish, yerdan samarali foydalanganlik va muhofaza qilganlik uchun imtiyozlar qo'llash, jamoatchilik

⁸ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

⁹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

¹⁰ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

¹¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

nazoratini ta'minlash hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llashni huquqiy tartibga solish masalalari chuqur yoritilmagan.

Shunga ko'ra, qishloq xo'jaligida tabiiy qonuniyatlar asosida bozor munosabatlarini rivojlantirish, ekologik meyorlarga rioya etishning eng maqbul holatini aniqlash, qolaversa, ommaviy va xususiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlashga erishish mazkur mavzuni kompleks monografik tarzda tadqiq etish zaruriyatini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ekologik barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fermer xo'jaliklari faoliyatini huquqiy tartibga solish, yer qonunchiligini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish tushunchasi, tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlarining doktrinal asoslarini tadqiq qilish;

fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish huquqi va majburiyatlari, shuningdek, yerlarini muhofaza qilish tartibi va talablarining nazariy-huquqiy masalalarini yoritish;

fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat organlari ishtiroki, ularning vazifa va funksiyalarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofazash samaradorligini ta'minlaganlik uchun imtiyozlar qo'llash, huquqiy kafolatlar berish tizimining huquqiy asoslarini tahlil qilish;

yerdan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni huquqiy tartibga solishning nazariy-huquqiy jihatlarini o'rganish;

fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazorati va uning huquqiy asoslarini tahlil qilish;

fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish;

amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash bo'yicha amaliy va ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti. Fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmeti. Fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan qonun hujjatlari, xorijiy mamlakatlar tajribasi,

shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hamda ushbu sohada qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissetatsiyada kuzatish, tahlil qilish (statistik, qiyosiy va h.k.) umumlashtirish, mantiqiy hamda statistik ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jalik yerlarining elektron onlayn-auksion natijasi asosida 30 yil muddatga ijara huquqi asosida berilishi va ijara shartnomasining shartlari va muddatlari taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanishi, shuningdek fermer xo'jaliklari tomonidan ijara huquqini boshqa shaxslarga (uchinchi shaxslarga) o'tkazish tartibi asoslab berilgan;

Fermer xo'jaliklarining foydalanishida bo'lgan yer uchastkalarini bo'lish Yer kodeksi talablari doirasida amalga oshirilishi, ya'ni bo'linayotgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi tashkil qilish uchun Yer kodeksida belgilangan eng kam o'lchamdan kam bo'lgan taqdirda bo'linmasligi bilan bog'liq holatlari asoslab berilgan;

Fermer xo'jaligi boshlig'i yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish orqali o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanuvchi o'z oila a'zolaridan biriga ijara shartnomasida belgilangan muddatga berishga haqli ekanligi asoslangan;

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligining yer uchastkalarini ijaraga olish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi o'z rahbari tomonidan uning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish orqali qayta tashkil etilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomi, yer ajratish tartibi va ularning qishloq xo'jalik tadbirkorlik sub'ekti sifatidagi ahamiyatini tushuntirish orqali keng jamoatchilikda fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi haqida tushuncha shakllantirish hamda uning huquqiy maqomini mustahkamlash yuzasidan qonunchilikka takliflar berilgan;

fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishi umumiy yerdan foydalanish tamoyillaridan farqli, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, yerdan foydalanish tamoyillari uning ustuvor jihatlari belgilashi va qonun hujjatlarida aks etishi bo'yicha takliflar ilgari surilgan;

fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarishdan tortib to iste'mol qilishgacha bo'lgan oziq-ovqat tizimlarining ekologik, ijtimoiy-madaniy, texnologik, iqtisodiy va siyosiy jihatlari o'z ichiga olgan agroekologiya konsepsiyasini kiritish, "agroturizm"ni rivojlantirish va "agroo'rmon xo'jaligi"ni tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslashga harakat qilingan;

fermer xo'jaliklarini tugatish va qo'shib yuborish jarayonida yer ijara shartnomasini bekor qilish va o'zgartirish, shuningdek, yer ijara huquqini uchinchi

shaxslarga sotish tartibini joriy etish bo'yicha takliflar berildi. Bundan tashqari, fermer xo'jaliklarining yerga bo'lgan huquqlarini kafolatlash, shaxsiy manfaatdorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar ilgari surilgan;

respublikada fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari belgilandi. Shuningdek, ushbu sohaga huquqiy yondashuvni rivojlantirish maqsadida uni "Qishloq xo'jalik huquqi" yoki kompleks huquq instituti sifatida asoslashga harakat qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti materiallari, xalqaro va xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi normalarining tahlil qilinganligi, rasmiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, olingan xulosalar hamda takliflarning joriy etilganligi tegishli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiq natijalarining ilmiy ahamiyati qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini rivojlantirish hamda ularning ilmiy-nazariy tahlili asosida olingan natijalardan ushbu yo'nalishdagi metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda hamda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishda, qishloq xo'jalik yerlarini muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o'tkazishda, shuningdek mazkur yo'nalishda tegishli vakolatga ega davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan qonun hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Yer kodeksi" va "Qishloq xo'jaligida yer ijarasi to'g'risida"gi qonun loyihalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini ta'minlashning huquqiy masalalari mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

Fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jalik yerlarining elektron onlayn-auksion natijasi asosida 30 yil muddatga ijara huquqi asosida berilishi va ijara shartnomasining shartlari va muddatlari taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanishi, shuningdek fermer xo'jaliklari tomonidan ijara huquqini boshqa shaxslarga (uchinchi shaxslarga) o'tkazishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining (1998-yil 1-iyul) 58-moddasi birinchi qismida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 22-maydagi 04/8-10-632-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jalik yerlarini ijara huquqi asosida berish bilan bog'liq faoliyatni huquqiy tartibga solishga xizmat qilgan;

Fermer xo'jaliklarining foydalanishida bo'lgan yer uchastkalarini bo'lish Yer kodeksi talablari doirasida amalga oshirilishi, ya'ni bo'linayotgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi tashkil qilish uchun Yer kodeksida belgilangan eng kam o'lchamdan kam bo'lgan taqdirda bo'linmasligi haqidagi ushbu taklifi O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi O'RQ-662-II-son "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining 13-moddasi beshinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 22-maydagi 04/8-10-632-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi fermer xo'jaliklarining yerga bo'lgan huquqlarini kafolatlash va yer uchastkalarining tegishli ixtisosliklar bo'yicha belgilangan o'lchamlardan kam bo'lgan taqdirda bo'linmasligi bilan bog'liq tartiblarni o'rnatishga xizmat qilgan;

Fermer xo'jaligi boshlig'i yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish orqali o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanuvchi o'z oila a'zolaridan biriga ijara shartnomasida belgilangan muddatga berishga haqli, deb berilgan taklifi O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi O'RQ-662-II-son "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining 13-moddasi sakkizinchi qismida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 22-maydagi 04/8-10-632-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinganligi fermer xo'jaligi rahbarining yerga bo'lgan huquqlarini yer ijara shartnomasi muddatiga meros qilib o'tkazish tartibini belgilashga ijobiy ta'sir o'tkazgan.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligining yer uchastkalarini ijaraga olish huquqi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinganda ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi o'z rahbari tomonidan uning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish orqali qayta tashkil etilishi mumkinligi haqida berilgan taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi O'RQ-662-II-son "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining 31-moddasi ikkinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 22-maydagi 04/8-10-632-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinganligi fermer xo'jaliklari faoliyatini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq normativlarni amalda samarali qo'llanishini kuchaytirishga oid huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, 14 ta ilmiy maqola (shundan 4 tasi xorijiy jurnallarda), to'plamlarda 6 ta maqola va tezislar (2 tasi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirishning yuridik tabiati”** deb nomlangan birinchi bobida fermer xo‘jaliklarida yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirishning nazariy-huquqiy masalalari, Fermer xo‘jaliklarida yerdan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy tamoyillari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi fermer xo‘jaligi, uning huquqiy asoslarini tahlil qilishda ko‘plab huquqshunos (X.Raxmonqulov, A.Suyundukova, O‘.Umirzoqov, A.Toshboev, O.Oqyulov, J.Xolmo‘minov, M.B.Usmonov, G.Uzakova, K.Sindorov) olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishish asnosida fermer xo‘jaligi tushunchasiga mualliflik ta‘rifini ishlab chiqqan.

Tadqiqotchi tomonidan yerdan foydalanish va yer munosabatlari rivojlanishining asosiy tamoyillari haqida turli olimlar (O.Voronkova, M.Brantova, Z.Texas, V.Buzmakov, A.Medvedev, L.Trushnikov, S.Volkov, V.Kundius, Yu.Ivanova) fikrlarini tahlil qilib qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanishning asosiy tamoyillarini shakllantirishgan. Xususan, tadqiqotchi davlat va butun jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning hayotiy ustuvorligi tamoyili, yerga egalik huquqini namoyon etishda barcha tashkiliy-huquqiy shakllarning tengligi prinsipi, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarining ustuvorligi prinsipi, yerdan foydalanish natijalari uchun javobgarlik prinsipi, qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish tamoyili, qishloq xo‘jaligi yerlaridan maqsadli foydalanish tamoyili, yer bitimlarining qonuniyligi va huquqiy ochiqlik tamoyili, yer uchastkalarining sifati va huquqiy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning mavjudligi, ochiqligi va ishonchligi tamoyili, turli toifalar va alohida hududlarning yer resurslarini boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda differentsiallik tamoyili, yerdan foydalanishning ekologik xavfsizligiga rioya qilish tamoyili, yerga egalik qilish va undan foydalanishda barqarorlik tamoyili, ijtimoiy ehtiyojlarni yer munosabatlari subyektlarining moddiy manfaatdorligi bilan birlashtirish tamoyili, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sohasida agrar sektorning ustuvorligi tamoyili, yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash tamoyili, qishloq xo‘jaligida yer munosabatlarini tartibga solishning davlat (ma‘muriy) va iqtisodiy usullarini uyg‘unlashtirish tamoyili, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining ko‘p tuzilmaliligi tamoyili, yer

resurslarini qayta taqsimlash tamoyili, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hududiy sharoitlarini hisobga olish tamoyili, izchillik va murakkablik tamoyili, yer munosabatlarining ilmiy asoslilik tamoyillarining xususiyatlari va o‘ziga xosliklarini o‘rganadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini ta‘minlashning huquqiy mexanizmi”** deb nomlanib, unda fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish samaradorligini ta‘minlashning huquqiy holati, fermer xo‘jaliklarining yerlarni muhofaza qilish shakllari, talablari va tartibi, fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari, fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini oshirishni rag‘batlantirish kabi masalalar tahlil qilingan.

Dissertant fikricha, fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga doir qonunchilik takomillashtirib borilayotgan bo‘lsada, ularning yerdan foydalanish huquqlarining kafolatlanmaganlik holatlari ham tahlil qilingan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining “Fermerga madad” aksiyasi doirasida mamlakatimizda mavjud fermer xo‘jaliklariga huquqiy yordam ko‘rsatish asosida ularning qariyb 10 % bilan tuman hokimliklari o‘rtasida yer ijara shartnomasi tuzilmaganligi aniqlangan. Bu esa, bugungi kunda umumiy soni 80134 dan ortiqni tashkil qiladigan fermer xo‘jaliklarining 8000 dan ortig‘ida ijara shartnomasi mavjud emasligi, qolaversa, ular tomonidan foydalanib kelinayotgan qishloq xo‘jalik ekin yerlarining qanchasida belgilanganidan boshqa turdagi ekinlar bo‘lishi hamda noqonuniy qishloq xo‘jalik aborotida ekanligini, o‘z navbatida, tuman hokimliklari tomonidan fermer xo‘jaliklariga yerga bo‘lgan huquqlarining kafolatlanmaganligini ifodalaydi.

Dissertant xorijiy davlatlar (Argentina, Fransiya, Qozog‘iston, Rossiya, Ukraina, Belarus, Yangi Zelandiya) tajribasini o‘rganish asosida fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

Birinchidan, aholi soni ortishi va urbanizatsiyalashish darajasining o‘shishi natijasida qishloq xo‘jaligida mehnat qiladigan insonlarning kamayishi, shuningdek shahar aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan talablarining ortishi;

Ikkinchidan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yangi navlari va turlarini yaratishdan ko‘ra yerga ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojning ko‘payib borishi;

Uchinchidan, qishloq xo‘jalik sohasidan yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish va bu borada tadqiqotlar olib borish tizimlarini takomillashtirish;

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jalik korxonalarining innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda sifatli mahsulot yetishtirish faoliyatini rag‘batlantirish va subsidiyalashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;

Beshinchidan, fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashtirilgan kooperatsiyalarga birlashishi va faoliyatini yo‘lga qo‘yishi bilan bog‘liq aniq mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Oltinchidan, 2004-yil 26-avgustdagi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunini (yangi tahriri) zamonaviy islohotlarga hamohang holda takomillashtirish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish zarur, degan fikrga keladi.

Muallif qishloq xo‘jalik yerlarini muhofaza qilish bo‘yicha bir guruh olimlar (N.Reymers, B.Yerofeev, T.O‘Neill I.Jalilov, Y.Jo‘raev, U.Bozorov, J.Xolmo‘minov, M.Usmonov, U.Ayubov va M.Mirzaabdullayeva) bilan bahs-munozaraga kirishib, qishloq xo‘jalik yerlarini muhofaza qilish davlat tomonidan amalga oshiriladigan turli chora-tadbirlar va fermer xo‘jaliklarining yer unumdorligini oshirishga qaratilgan faoliyati asosida amalga oshiriladi, deb hisoblaydi. Qolaversa, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik yerlarini muhofaza qilish shakllaridan kelib chiqib uni muhofaza qilish talablari belgilanadi. Yerlarni muhofaza qilish talablari va tartibi qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish shakllaridan kelib chiqib tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanishi yerlarni me‘yoriy huquqiy muhofaza qilish sifatida ham baholanadi. Ular yer monitoringgi va nazorati ko‘rinishida, iqtisodiy rag‘batlantirish, tashkiliy va texnologik tadbirlarni belgilash asosida, shuningdek to‘g‘ridan-to‘g‘ri muhofazalash chora-tadbirlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Dissertant tadqiqot ishida yer maydonlarini o‘zboshimchalik bilan egallab hududlarda 115 ta holatda (1488 gektar) yer berish tartibi, 124 ta holatda (134 gektar) foydalanilgan yerlar o‘z vaqtida qaytarilmaslik, 328 ta holatda (9230,7 gektar) xo‘jalik ichki yer tuzish loyihalaridan chetga chiqish, 2021-yilda 97 487¹² ta holatda qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish va muhofazalash bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, 2022-yilning dastlabki olti oyi davomida 62 714¹³ ta holatda qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar sodir etilganligini tahlil qiladi. Statistik ma‘lumotlar va tahlillar asosida fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilishda qonun buzilishi natijasida javobgarlikka tortish quyidagi holatlarda yuzaga keladi, deb hisoblaydi:

fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish va muhofazalashga doir majburiyatlarni bajarmaganligi holati asosida;

fermer xo‘jaligining shartnoma majburiyatlari bajarmaganligi holatlari yuzasidan;

fermer xo‘jaliklarining xo‘jaliklararo yer va suvdan foydalanish talablariga rioya qilmasligi (servitut talablari buzishi) oqibatida;

fermer xo‘jaliklarida faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarning mehnat munosabatlariga rioya qilmaslik natijasida;

fermer xo‘jaliklarining davlat oldidagi soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida bajarmaganligi holatlari yuzasidan ularga nisbatan yuridik javobgarlikka tortish masalasi yuzaga keladi.

Dissertatsiya ishida fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jalik korxonalarining

¹²<http://agroinspeksiya.uz/oz/menu/kvartalnye-i-godovye-otchety-po-vypolnennym-rabotam-so-storony-inspektsii>

¹³<http://agroinspeksiya.uz/oz/menu/kvartalnye-i-godovye-otchety-po-vypolnennym-rabotam-so-storony-inspektsii>

“daladan vilkagacha” tamoyili asosida sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishini ta‘minlash maqsadida milliy qonunchiligimizka “agroekologiya” va “agro‘rmon xo‘jaligi” tushunchasini kiritish va uning huquqiy asoslarni yaratish g‘oyasi taklif qilingan.

Bundan tashqari, muallif yerdan foydalanishda davlat boshqaruvi bir guruh olimlar (Y.Jo‘rayev, M.Usmonov, Sh.Fayziyev, J.Xolmo‘minov, U.Ayubov, U.Bozorov, M.Mirzaabdullayeva, Q.Abdulhasanova, A.Shukurullayev, A.Gulmonov, Sh.Ro‘zinazarov, K.Sindorov, U.Ayubov, N.Axmanov, Dj.Safarov, O.Narzullayev, G.Uzakova, D.Maxkamov, M.Maxmadaminov, M.Nurmatov, N.Rajabov, R.Toshboyeva, Sh.Boboqulov, O.Xolmuminov, E.Qurbonov, A.Xodjayeov, A.Gulmonov, J.Suvonqulovlar) fikri asosida tahlil qilib, qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish va muhofaza qilishda davlat nazoratini amalga oshirishda yer uchastkalarini elektron ochiq auksion savdolarida sotish va ijara shartnomasini rasmiylashtirish, yer uchastkasidan maqsadli foydalanish; yer uchastkalaridan samarali foydalanish; yer uchastkalridan xo‘jasizlarcha foydalanishning oldini olish; yer uchastkalaridan oqilona foydalanishni tashkil qilish va yerlarni muhofa qilish va tuproq unumdorligini oshirish vazifalarini muhim deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi kundalik iste‘mol qilinadigan qishloq xo‘jalik oziq-ovqat mahsulotlarining qanday sharoitda yetishtirilganli va saqlanganligi, shuningdek, genomodifikatsiya qilinganligi yoki qilinmaganligi yuzasidan iste‘molchiga ma‘lumot taqdim etilmasligini tahlil qiladi va fermer xo‘jaliklari hamda boshqa qilshoq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilari tomonidan *yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va uning agroekologik talablarga javob berishi yuzasidan aniq axborot taqdim etish tizimini* yo‘lga qo‘yishni taklif etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Fermer xo‘jaliklarining yerlardan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini ta‘minlash kafolatlari”** deb nomlanib, unda fermer xo‘jaliklarining yerga bo‘lgan huquqlarini kafolatlash, undan samarali foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalalari yoritilgan. Milliy qonunchilikda yerga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishga doir qator chora-tadbirlar tahlil etilgan. Shu bilan birga, Turkmaniston, Tojikiston, Belarus va Rossiya kabi davlatlarning yer qonunchiligida fermerlar uchun yaratilgan huquqiy kafolatlar va mexanizmlar tahlil qilinib, xorijiy davlatlarda yer munosabatlarini tartibga solishning samarali yondashuvlari haqida fikr yuritilgan.

Fermer xo‘jaliklari faoliyatida ayrim muammolar, xususan, yer uchastkalaridan samarali foydalanishning yetarli darajada ta‘minlanmaganligi, mehnat munosabatlarini tashkil qilish va yangi agrotexnologiyalarni joriy etishda yuzaga kelayotgan bir qator qiyinchiliklar yoritib o‘tilgan. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali hosildorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlariga e‘tibor qaratilgan. Yaponiyada "aqli qishloq xo‘jaligi", AQSh, Niderlandiya va Singapur kabi davlatlarning ilg‘or tajribalari haqida ma‘lumotlar keltirilib, ushbu texnologiyalar qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishdagi roli ta‘kidlangan. Rivojlanish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar orasida fermer xo‘jaliklari uchun zamonaviy texnologiyalarni

xarid qilish va qo'llashda davlat va xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilish, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hosildorlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun muhimligi alohida ta'kidlangan. Innovatsion yondashuvlar va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb topilgan.

Shuningdek, ushbu bobda bir qancha olimlarning qishloq xo'jaligi, yer huquqlari va innovatsiyalar bo'yicha fikrlari tahlil qilingan. G.Chubukov, Yu.Romanes, A.Totochenko, V.Novikov, N.Kravchenko, V.Savenko, Rayan Xobert kabi olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishish asnosida qishloq xo'jaligi, yer huquqlari va innovatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar yoritib o'tilgan. Xususan, V.Savenko innovatsiyalarni joriy qilishning samaradorligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham baholanishi kerak degan g'oyani qo'llab-quvvatlagan holatda, qishloq xo'jaligi sohasida samarali innovatsion loyihalar bankini yaratish maqsadga muvofiqdir¹⁴ degan fikrlari asosida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barcha jabhalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligi bildiradi. N.Kravchenko esa qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi nav va gibridlarini o'zlashtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash uslubiyatini ishlab chiqish bilan bir qatorda ishlab chiqarish-moliyaviy tahlikalarni hisobga olgan holda tarmoq innovatsiyalarini ishlab chiqishga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini baholash zaruratini asoslagan.

Bundan tashqari, fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish va muhofaza qilish choralari amalga oshirishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanishni va "Aqlli qishloq xo'jaligi"ni shakllantirish masalasiga to'xtalib o'tgan. Dissertatsiyada fermer xo'jaliklariga *davlat xususiy sherikchiligi va subsidiyalari asosida zamonaviy texnologiyalarni xorijdan olib kelish bilan shug'ullanadigan korxonalarini erkin tanlash bo'yicha va erkin savdo kelishuvlarini amalga oshirish bo'yicha yangi tartiblarni joriy qilish va uni milliy qonunchigimizda qo'llash* maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyada fermer xo'jaliklari faoliyatida yerdan foydalanish va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning "*Aylanma akvakultura*" usulini qo'llashning huquqiy asoslari tahlil qilinib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan ekologik nazorat, nafaqat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq faoliyat, balki u davlat boshqaruvi funksiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ham e'tirof etilib, fermer xo'jaliklarini himoya qilishdagi masalalari tahlil qilingan.

XULOSA

Fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish va muhofaza qilish

¹⁴ Савенко В.Г. Формирование системы освоения инноваций в сельском хозяйстве: Теория, методология, практика: диссертация ... доктора экономических наук: 08.00.05. – Москва, 2005. – 338 с.

samaradorligini ta'minlashning huquqiy masalalari mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

